

Methodology Of Forming Children's Worldview Based On Empirical Experiences In The Process Of Preschool Education

Nazarova Guzal Turdi Kizi

Asian University Of Technologies

Theory And Methodology Of Education And Upbringing

(Pre-School Education Direction), 25-11 Group Master's Student

Abstract

This article examines the role and importance of the empirical method (experimental) in shaping the worldview of preschool children. Issues of developing logical thinking skills through studying the environment, observing natural phenomena, and conducting simple laboratory experiments are analyzed. The article also discusses interactive methods of empirical learning and their educational effectiveness.

Keywords: preschool education, empirical method, worldview, experiment, observation, logical thinking, interactive learning.

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda empirik (tajriba-sinov) metodining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bolalarning atrof-muhitni o'rganishi, tabiat hodisalarini kuzatishi va oddiy laboratoriya tajribalari orqali mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada empirik o'rganishning interfaol usullari va ularning tarbiyaviy samaradorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, empirik metod, dunyoqarash, tajriba, kuzatuv, mantiqiy fikrlash, interfaol ta'lim.

Kirish

Bolalik davri inson hayotidagi eng qiziquvchan va ma'lumotlarni tez qabul qiladigan bosqichdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga shunchaki nazariy bilim berish ularning dunyoqarashini to'liq shakllantira olmaydi. Bu jarayonda empirik tajribalar — ya'ni "ko'rib, ushlab va his qilib ko'rish" orqali o'rganish usuli yetakchi o'rin tutadi. Ta'lim jarayonini rivojlantirish va sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilish borasida davlat rahbari tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga o'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalarini kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish

jarayonini tashkil qilish borasida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini amaliyotda qo'llash joriy qilindi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi o'zgarishlar qatorida im-tarbiya mazmunini yangilash, uni muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bunday yangilanish va o'zgarishlar bir qator ta'lim qonunlari hamda ta'lim dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilingani vatan ravnaqi uchun kerak bo'lgan kelajak avlodni o'lab qilingan vazifadir. Bundan kelib chiqadiki har bir bola davlat e'tiborida. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim sohasida katta e'tibor qaratilmoqda. Bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib yetishtirish uchun ya'ni bolaning jismonan sog'lom, teran

dunyoqarashga ega bo'lishida tarbiyachi va ota-onaning o'rnini juda muhimdir. Har bir bolaning manan boy kamolatga erishtirishda sifatli ta'lim va tarbiya muhim omildir. Ularning ta'lim va tarbiyasida pedagog va ota-ona juda katta mas'uliyat yondoshishi iozim. Bolaning axloqiy va milliy dunyoqarshini shakllantirishda pedagogning o'rnini biqiyosdir. Chunki bola hayotida maktabgacha ta'lim muassasasi ilk dargoh bo'lib u yerda uning jamoaviy fikri shakllanadi. Oilada eshitgan ertak va hikoyalarini bog'chada suyuqetli -rolli o'yinlar orqali o'zi ijro etadi va tassavurga ega bo'ladi. Bu tassavurlar ostida bolaning dunyoqarasi kengayadi, san'at markazida esa badiiy tasavuri oshadi. Bu borada bolalarning dunyoqarashlarining shakllanishida "Ilk qadam" Davlat dasturining o'rnini juda katta. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishi belgilaydigan tayanch hujjatdir. Mazkur hujjat orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tegishli tamoyillar aks ettirilgan. Ushbu tamoyillar O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni huningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlash kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini maktabgacha bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni belgilaydi.

Asosiy qism: Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama rivojlanmoqda va juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, barkamol avlod qilib yetishtirishda, avvalo, uning sog'ligi, nutqi va boshqa sifatleri, ingliz tili jihatidan savodxonligiga ham e'tibor qaratish

lozimligi e'tiborga olinmoqda. Ta'limning yangi mazmuni bolaning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda ota-ona va tarbiyachining zimmasiga katta ma'suliyat yuklashi shubhasizdir. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum qolipdan o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, u xususiy ko'rinishlardan umumiy ko'rinishlarga, ya'ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlarga rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib takomillashib boradi. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi kunda yoshlarimizning ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual salohiyatli siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning asosiy tarkibiy qismlari asosida shakllanadi. Dunyoqarash tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum qolipdan o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o'rin egallashga chorlaydi". Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, u xususiy ko'rinishlardan umumiy ko'rinishlarga, ya'ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlarga rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u

ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib takomillashib boradi

1. Empirik metodning mohiyati

Empirik metod — bu bilimlarni amaliy tajriba va sezgi a'zolari orqali to'plashdir. Maktabgacha yoshdagi bola uchun har bir yangi narsa tadqiqot obyekti hisoblanadi. Masalan, suvning muzlashi, o'simlikning o'sishi yoki ranglarning aralashishi kabi jarayonlarni bola o'z ko'zi bilan ko'rganda, unda olam haqida aniq tasavvur paydo bo'ladi.

2. Dunyoqarashni shakllantirish bosqichlari
Empirik tajribalar quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

* Kuzatuvchanlik: Atrofdagi o'zgarishlarni payqash.

* Taqqoslash: Buyumlarning shakli, rangi va xususiyatlarini farqlash.

* Xulosa chiqarish: "Nima uchun bunday bo'ldi?" degan savolga javob izlash.

3. Amaliy tajribalar turlari

Maktabgacha ta'limda qo'llanilishi mumkin bo'lgan oddiy empirik mashg'ulotlar:

* Tabiat bilan tanishuv: Urug' ekish va uning unib chiqishini kuzatish.

* Fizik xususiyatlar: Qaysi buyumlar suvda cho'kadi, qaysilari esa suzadi?

* Ranglar spektri: Asosiy ranglarni aralashtirib, yangi ranglar hosil qilish.

> Muhim eslatma: Har qanday empirik tajriba bolaning xavfsizligini ta'minlagan holda va o'yin shaklida o'tkazilishi lozim.

>

Xulosa

Empirik tajribalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu metod orqali bolada nafaqat bilim, balki tabiatga va jamiyatga nisbatan to'g'ri munosabat, ya'ni sog'lom dunyoqarash shakllanadi. Kelajakda bu bolalar tahliliy fikrlaydigan va muammolarga

kreativ yechim topadigan shaxslar bo'lib yetishadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019-yil.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari". — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent, 2018-yil.

Abdullaeva Z., Tadjibaeva S. Maktabgacha ta'lim metodikasi. —Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Yusupova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar p sixologiyasi. —

Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.

Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 144-146. 5. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgach

Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press. (Bolalar intellektual rivojlanishida tajribaning o'rni haqidagi klassik asar).

Vigotskiy, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

Sh. Shodmonova. (2008). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya".

Поддьяков, А. Н. (2002). Исследовательское поведение: стратегии познания, помощь, противодействие, конфликт.



Москва. (Bolalar tadqiqotchilik
faoliyati bo'yicha muhim qo'llanma).

Ismatova, N. B. (2020). "Inovatsionnye
metody v doshkolnom obrazovanii".
Journal of Academic Research in
Educational Sciences.